

## **Surxondaryo viloyatida bajarilgan qurilish ishlari**


*2025-yil yanvar-avgust oylari uchun*

- I. Jami bajarilgan qurilish ishlari
- II. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari
- III. Jami qurilish ishlari hajmining korxonalar turlari bo'yicha taqsimoti
- IV. Qurilish ishlari bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

### **I. Jami bajarilgan qurilish ishlari**

2025-yilning yanvar-avgust oylarida, Surxondaryo viloyatida jami 9 503,7 mlrd so'mlik qurilish ishlari bajarilib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 109,8% ni tashkil etdi.

#### **Bajarilgan qurilish ishlari dinamikasi**



	Hajm, mlrd so'm	O'sish sur'ati, %
Surxondaryo viloyati *	9 503,7	109,8
Termiz sh.	2 772,6	116,2
Oltinsoy tumani	164,9	128,1
Angor tumani	235,8	103,9
Bandixon tumani	96,6	103,8
Boysun tumani	366,7	104,3
Muzrabot tumani	185,3	111,4
Denov tumani	574,6	103,4
Jarqo'rg'on tumani	353,8	103,9
Qumqo'rg'on tumani	239,9	111,4
Qiziriq tumani	225,7	100,8
Sariosiyo tumani	546,4	101,7
Termiz tumani	431,9	101,0
Uzun tumani	149,8	116,5
Sherobod tumani	253,9	105,8
Sho'rchi tumani	136,3	102,4

*\*) Hududlar bo'yicha taqsimilanmagan hajmni qo'shgan holda*


Mavzuga doir ko'satkichlar:  
[Qurilish ishlari hajmi \(oylik\)](#)  
[Qurilish ishlari hajmi \(yillik\)](#)

## II. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari

2025-yilning yanvar-avgust oylarida Surxondaryo viloyatida bajarilgan qurilish ishlaringin iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi quyidagicha:

- binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 74,1 % ulushni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 109,3 % ni tashkil etdi;
- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 21,5 % ulushni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 103,2 % ni tashkil etdi;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 4,4 % ulushni va 2024-yilning mos davriga nisbatan 168,1 % ni tashkil etdi.

### Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari o'sish sur'ati va hajmi




### Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha korxona turlari kesimida qurilish ishlari

	Bino va inshootlar qurilishi	Fuqarolik obyektlari qurilishi	Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari
Yirik qurilish tashkilotlari hajmi, mlrd so'm	185,3	604,2	50,4
o'sish sur'ati, %	176,8	126,7	219,6
Kichik korxona va mikrofirmalar hajmi, mlrd so'm	3 508,3	1 437,1	366,4
o'sish sur'ati, %	108,5	96,6	162,9
Norasmiy sektor hajmi, mlrd so'm	3352,0	-	-
o'sish sur'ati, %	107,9	-	-

Mavzuga doir ko'satkichlar:  
[Bino va inshootlar qurilishi hajmi \(oylik\)](#)  
[Bino va inshootlar qurilishi hajmi \(yillik\)](#)  
[Fuqarolik obyektlari qurilishi hajmi \(oylik\)](#)  
[Fuqarolik obyektlari qurilishi hajmi \(yillik\)](#)  
[Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi \(oylik\)](#)  
[Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi \(yillik\)](#)

### III. Jami qurilish ishlari hajmining korxonalar turlari bo'yicha taqsimoti va o'sish sur'ati




Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2025-yilning yanvar-avgust oyida bajarilgan qurilish ishlari hajmi 839,9 mlrd so'mni tashkil etdi. Ko'rib chiqilayotgan davrda qurilish ishlari hajmi 2024-yilning mos davriga nisbatan 138,9 % ni va ularning umumiy hajmdagi ulushi 1,8 % ga ko'payib, 8,8 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 55,9 % i to'g'ri kelib, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2024-yilning mos davriga nisbatan 107,4 % ni tashkil etgan holda 5 311,8 mlrd so'm miqdorida qayd etildi.

Norasmiy sektorda qurilish ishlarining ulushi 35,3 % ni yoki 3 352,0 mlrd so'mni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 107,9 % ni tashkil etdi.

#### Korxona turlari bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'atlari



## Hududlar kesimida korxona turlari bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari

	Hajm, mlrd so'm			O'sish sur'ati, % da		
	Yirik	Kichik va mikrofirma	Norasmiy sektor	Yirik	Kichik va mikrofirma	Norasmiy sektor
Surxondaryo viloyati *	839,9	5 311,8	3 352,0	138,9	107,4	107,9
Termiz sh.	80,1	2 641,6	50,9	177,9	116,5	68,0
Oltinsoy tumani	45,4	88,6	30,9	926,1	97,7	92,8
Angor tumani	18,4	109,7	107,7	200,6	97,0	102,7
Bandixon tumani	9,1	46,4	41,1	83,0	101,9	112,6
Boysun tumani	9,0	229,3	128,4	87,8	101,6	111,2
Muzrabot tumani	21,3	62,3	101,7	97,9	129,0	105,5
Denov tumani	16,3	335,8	222,5	104,2	103,6	103,0
Jarqo'rg'on tumani	51	167,2	135,6	207,2	85,5	112,8
Qumqo'rg'on tumani	32,4	107,1	100,4	201,5	95,4	115,7
Qiziriq tumani	6,6	171,6	47,5	66,1	97,7	124,6
Sariosiyo tumani	246,7	138,2	161,5	111,4	85,8	104,4
Termiz tumani	30,6	274,3	127,0	161,2	88,8	128,0
Uzun tumani	41,5	57,6	50,7	181,3	84,9	134,3
Sherobod tumani	25,8	90,6	137,5	119,4	99,3	108,1
Sho'rchi tumani	3,6	83,3	49,4	127,4	94,8	116,8

*\*) Hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmni qo'shgan holda*

Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlaring eng yuqori o'sish sur'atlari Oltinsoy tumanida (2024-yilning mos davriga nisbatan 926,1 %), Qumqo'rg'on tumani (201,5 %) va Jarqo'rg'on tumani (207,2 %) qayd etildi.

Ko'rib chiqilayotgan davrda kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlaring eng yuqori o'sish sur'atlari Muzrabot tumanida (2024-yilning mos davriga nisbatan 129,0 %), Denov tumanida (103,6 %) va Termiz shahriga (116,5 %) kuzatildi.

### **IV. Qurilish ishlari uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar**

**Qurilish ishlari** – bino va inshootlarni barpo etish, qayta tiklash, kengaytirish, kapital va joriy ta'mirlash ishlari majmuasi sifatida qurilish ishlab chiqarishining natijasidir.

Qurilish ishlari qiyomatiga qurilish uchastkalarining o'zlashtirish ishlari rejasini tuzish va tayyorlash, suv ta'minoti, issiqlik, kanalizatsiya, poydevorlarni o'rnatish, devorlarni ko'tarish, bino konstruksiyalarini montaj qilishning sanitar-texnika ishlari, boshqa pudrat ishlari (ishga tushirish va sozlash, gidroyuvish ishlari, yer qatlamini ochish, texnik-madaniy ishlar va boshqalar) kiritiladi.

Qurilish ishlaring statistik hisobi davrining amaldagi narxlarida, qo'shilgan qiymat solig'ini qo'shmagani holda, to'lov muddatidan qat'i nazar, hisobot davrida haqiqatda bajarilgan hajm bo'yicha amalga oshiriladi.

Qurilish ishlari hajmi bo'yicha statistik ma'lumotlar quyidagilar asosida shakllantiriladi:

- a) qurilish faoliyatini olib boruvchi yuridik shaxslarning statistika hisobotlari (oylik, yillik);
- b) kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyatining choraklik tanlanma kuzatuv natijalari;



d) jismoniy shaxslar tomonidan yakka tartibdagi uy-joy va noturar-joy obyektlar qurilishi monitoringi bilan shug'ullanuvchi O'zbekiston Respublikasi Davlat kadastrlari palatasining hududiy boshqarmalari statistika hisobotlari;

e) foydalanimishga topshirilgan yakka tartibdagi uy-joylarni tanlama statistik kuzatuvi ma'lumotlari;

f) yakka tartibdagi uy-joylarni xo'jalik usuli bilan ta'mirlash hajmini statistik baholash.

Metama'lumot uchun havola:

<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/1875/Qurilish-ishlari.pdf>

<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/1877/Aholi-jon-boshiqa-qurilishishlari.pdf>

---

**Tayyorlash uchun mas'ul:**  
Surxondaryo viloyati investitsiya va  
qurilish statistikasi bo'limi

**Ijrochi:**  
SH. Gaipov  
55 451-80-00 (7520)

**Manzil:**

